

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil 25-noyabr
N:47 (66952)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

AN'ANAVIY KO'RGAZMA

Gazeta-jurnallar-u rang-barang kitoblarni ko'rgazmasida qatnashishni kim ham istamaydi, deysiz? Poytaxtimizdagi «O'zbekpomarkaz» majmuasida o'tkazilgan «O'zbekiston matbuoti» III Milliy ko'rgazmasi qatnashchilari ham tadbirdagi ishtiroklaridan mamnun bo'lishdi. Ayniqsa, nashriyotlar, tahririyatlarning sovg'alariga ega bo'lgan yosh ishtirokchilar «O'zbekiston», «O'qituvchi», Cho'lpon, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylarida chop etilgan bolalarbop kitoblarni ko'rib, juda zavqlanishdi, matbaachilik sohasidagi yangiliklardan xabarador bo'lishdi. «O'zbekiston» NMIU rastalaridan o'rin olgan bolalar nashrlari, jumladan, «Tong yulduzi» gazetasi ham qo'lma-qo'l bo'lib ketdi.

GULLAR

SHAHIRIM NAMANGAN

O'RIPOV olgan suratlari

Uychi tumanidagi yangi 13-Bolalar musiqa va san'at maktabi Konstitutsiyamiz bayramiga munosib sovg'a bo'ldi.

Yurtimizning so'lim Namangan viloyatiga qilgan safarimiz kuzning so'nggi oyiga to'g'ri kelsa-da, «Gullar shahri» deya nom olgan bu go'shaning ko'rk-u tarovatidan zavqlanib, bir olam taassurotlar bilan qaytdik. Viloyatda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlariga guvoh bo'lib, ko'ksimiz tog' barobar bo'yladi. Keng va ravon ko'chalarning ozodaligi, ma'muriy binolar, turarjoylar atrofidagi saranjom-sarishtalik, fayzli, obod mahallalar tarovati ko'ngillarimizni obod qildi. Bu manzara kuz quyoshining ilq, huzurbaxsh tafti bilan uyg'unlikda bizga ko'tarinki kayfiyat, ilhom bag'ishladi.

Viloyatning sodda va samimiy insonlari bilan uchrashdik, daryodil ustozlar bilan dildan suhbatlashdik, gazetamiz obunasining yildan yilga ortib borishiga o'z hissasini qo'shayotgan o'quvchilarimiz bilan diydorlashdik, ta'lim maskanlarida o'tgan tadbirlarda, kecha va ijodiy uchrashuvlarda ishtirok etdik.

Ko'rganlarimiz, eshitganlarimiz asosida namanganlik o'quvchi-yoshlarga, ularga ta'lim-tarbiya berayotgan fidoyi ustoz-murabbiylarga bag'ishlangan MAXSUS SONni tayyorlashga kirishdik.

FARZANDLARIMIZ
BIZDAN KOKA
KUCHA, BILIM, DOHA
JAM ALBATA BAHTLI
DOLSHARH SHART
K. KARIMOV

Namanganlik
o'quvchilar va ularning
ustozlariga bag'ishlangan
MAXSUS SON



**Har kim bilim olish huquqiga ega.
Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.
Maktab ishlari davlat nazoratidadir.
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi**

VILOYAT HAQIDA

Namangan O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyatlardan biri bo'lib, maydoni 7440 km² ni tashkil etadi. Viloyatda 11 ta qishloq tumani (Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Yangiqo'rg'on), 8 ta shahar (Namangan, Kosonsoy, Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Haqqulobod) mavjud bo'lib, markazi – Namangan shahri hisoblanadi.



TARIXIY OBIDALAR

Namanganda Xo'ja Amin maqbarasi (XVII asr), Mulla Qirg'iz madrasasi va Ota Valixon to'ra masjidi (XX asr) kabi me'moriy yodgorliklar bor.

Viloyatda 85 arxeologik, 15 ga yaqin me'moriy yodgorlik bo'lib, shulardan qadimgi shahar va istehkomlar qoldirlari Axsikent, Munchoqtepa, Oyritom, Mug'tepa (antik davr); me'moriy yodgorliklardan Jome masjidi (XVIII asr),

Chodak madrasa-masjidi (XVIII asr), Shayx Ishoq Eshon (XIX asr), Ota Valixon to'ra (XX asr), Haqqulobod masjidlari, Yusupxon Eshon (18 asr), Mavlono Lutfullo Chustiy me'moriy majmualari, G'oyib Nazar, Mulla Qirg'iz madrasalari mavjud.

Mustaqillik yillarida viloyat butunlay yangicha manzara kasb etdi. Keng va ravon ko'chalar, yangi zamonaviy turarjoy massivlari, akademik litseylar, kollejlari, umumta'lim maktablari, bolalar sport maydonchalari, ko'rkam maishiy xizmat uylari qad rostladi.

VATANNI OBOD ETAR BARKAMOL AVLOD

An'anaga ko'ra, safarimizni viloyat Xalq ta'limi boshqarmasidan boshladik. Boshqarma boshlig'i, gazetamizning tahrir hay'ati a'zosi Sobitxon Turg'unov ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar xususida bizga quyidagilarni gapirib berdilar:

– Istiqlol yillarida yurtimizda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham qator islohotlar amalga oshirildi. Sohani rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, o'quvchi-yoshlarga zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi egzu harakatlar bugungi kunda ham izchil

nafardan ziyod o'quvchi va o'qituvchilar faol ishtirok etdilar. Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari badiiy jamoalar o'rtasida o'tkazilgan «Bolalik bahori» tanlovida Yangiqo'rg'on tumani-dagi 17-BMSM xor jamoasi 1-o'rinni egalladi.

O'quvchilarimizning fan, ta'lim, adabiyot sohasida qo'lga kiritayotgan

ham qanday mashg'ulotlar bilan band ekanliklaridan xabardor bo'lishimiz, ularning bo'sh vaqtlarini unumli va mazmunli tashkil etishimiz zarur. Ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni sodir etilishining oldini olish

Viloyatda jami 1230 ta ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ulardan 689 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, 469 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 13 ta «Barkamol avlod» markazlari, 40 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari, 17 ta Bolalar musiqa va san'at maktablari, 1 ta Mehrbonlik uyi faoliyat ko'rsatib kelmogda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda jami 359 374 nafar o'quvchi-yoshlar ta'lim-tarbiya olmoqda.



davom ettirilmoqda. Jumladan, viloyatimizda ham bu borada ko'plab ibratli ishlar qilinmoqda.

Sog'lom avlodni tarbiyalashda sport va jismoniy tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Yoshlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida o'tgan yillar mobaynida Bolalar sportini rivojlantirish jam'arasi tomonidan jami 116 ta sport inshootlari, jumladan, 60 ta maktabda yangi sport zallari qurildi, 32 ta maktabning mavjud sport zallari, 11 ta suzish havzalari, 3 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari rekonstruksiya qilindi, 4 ta bolalar musiqa va san'at maktablari yangi qurildi, 6 tasi rekonstruksiya qilindi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida viloyatda faoliyat yuritayotgan 7 ta «Barkamol avlod» markazlarida kapital ta'mirlash va jihozlash ishlari olib borildi.

Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari ko'rilmogda. 2011–2012-o'quv yilida viloyat miqyosida BMSMlarida ta'lim olayotgan o'quvchilar soni 2108 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2012–2013-o'quv yilida o'quvchilar soni 2406 nafarga yetdi. 2013-yil «Yagonasan, muqaddas Vatan!» respublika ko'rik-tanlovining saralash bosqichlarida 5000

yutuqlari ham salmoqli bo'lyapti. Barcha ta'lim muassasalari «Taqdirimsan, baxtimsan erkin va obod Vatan!» mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi.

Tanlovning tuman, shahar bosqichlarida 1–3-o'rinni egallagan o'quvchilar viloyat «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazida o'tkazilgan viloyat bosqichida ishtirok etib, o'z iqtidor va salohiyatlarini sinovdan o'tkazishdi. Tanlov yakuniga ko'ra, 1-o'rinni Yangiqo'rg'on tumanidagi 21-maktabning 9-sinf o'quvchisi D.Jo'raxonova, 2-o'rinni Namangan shahridagi 63-maktabning 7-sinf o'quvchisi M.Qozoqjonova, 3-o'rinni To'raqo'rg'on tumanidagi 4-maktabning 8-sinf o'quvchisi M.Rahimjonova egallashdi.

O'quvchilarda tabiiy boyliklar hisoblangan gaz, elektr, suv va boshqa energiya manbalarini asrab-avaylash, ulardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish maqsadida viloyatdagi barcha umumta'lim maktablarining 4–9-sinf o'quvchilari o'rtasida «Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanaylik» mavzusida rasmlar va insholar tanlovlari o'tkazildi.

Biz ustozlar barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga mas'ul ekanimiz, ularning nafaqat maktabda, balki darsdan keyin

maqsadida bir qator ma'naviy-ma'rifiy hamda profilaktik tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, «Jinoyatga jazo muqarrar», «Oila – tarbiya o'chog'i», «Bola huquqlari Konvensiyasi va huquqbuzarlikning oldini olish», «Siz o'z huquqingizni bilasizmi?», «Hushyorlikka da'vat», «Jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydilar», «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni», «Yashash baxti», «Jahl va loqaydlik», «Jaholatga qarshi ma'rifat» mavzularida yig'ilishlar, kechalar, suhbatlar, bahs va munozaralar o'tkazildi.

Bugungi kunda o'quvchilarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun 2608 ta sport inshootlari faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, 592 ta sport zal, 16 ta stadion, 9 ta suzish havzalari, 58 ta o'q otish tirlari, 443 ta basketbol, 590 ta voleybol, 317 ta qo'l to'pi, 274 ta futbol, 279 ta mini-futbol maydonchalari va 28 ta tennis kortlari, 2 ta boshqa sport turlari bo'yicha sport inshootlari sportsevarlar ixtiyorida. 2013-yilning 9 oyi davomida jahon, xalqaro, Osiyo va respublika chempionatlarida ishtirok etgan umidli yosh sportchilarimizdan 261 nafari sovrinli o'rinlarga munosib topildilar. Jami 32 ta oltin, 30 ta kumush, 110 ta bronza

medallarni qo'lga kiritib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilishdi.

Shogird ustozidan andoza oladi, deyishadi. Barcha sohada salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan o'quvchilarimiz o'z ustozlaridan ibrat olgan bo'lsalar, ne ajab?! Chunki viloyatimizda ilg'or, tajribali, o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar asosida saboq berib kelayotgan fidoyi ustozlarimiz juda ko'p. Ulardan o'n nafarining ish tajribasi respublika miqyosida ommalashtirilgan.

O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, ularning iqtidor va qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlash va kasb-hunarga yo'naltirish, umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan «Ustoz – shogird» maktabi, «Dars muqaddas» va «O'rgan, o'rgat» tadbirlari asosida ham talaygina ibratli ishlar amalga oshirildi.

Bir so'z bilan aytganda, barcha sa'y-harakatlarimiz ertamiz egalarining kamolotiga qaratilgan. Zero, ham jismonan, ham ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalash barchamizning, butun jamoatning asosiy ishimiz, insoniy burchimizdir.

BAYRAMGA MUNOSIB SOVG'A

Bolajonlar, bayram arafasida kimdandir sovg'a olsangiz, juda quvonsangiz kerak-a? Aslida sovg'aning katta-kichigi bo'lmaydi, deyishadi, muhimi, e'tibor. Iqtidorli, iste'dodli yoshlar esa hech qachon e'tibordan chetda qolishmaydi.

Prezidentimizning «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq, namanganlik tengdoshlaringiz Konstitutsiyamizning 21 yillik bayrami arafasida ajib sovg'aga ega bo'lishdi.

Viloyatning Uychi tumanida 13-Bolalar musiqa va san'at maktabi qad rostladi. Mazkur dargoh keng, yorug' o'quv xonalari, yangi cholg'u asboblari va o'quv

jihozlari bilan yanada ko'rkamlashib ketdi.

Yangi musiqa maktabida iste'dodli yoshlar fortepiano, o'zbek xalq cholg'ulari, an'anaviy xonandalik, estrada xonandaligi, tasviriy san'at, xoreografiya, teatr san'ati, damli va zarbli cholg'ular singari bo'limlarda tahsil olishadi.

— Bu muhtasham dargohning bayram arafasida qurib bitkazilishi yanada

jakda xonanda, sozanda bo'lishni niyat qilgan yoshlarimizga barcha sharoitlar muhayyo etilgan.



— Men ustozim Madina opa yordamida o'zbek milliy cholg'u asboblardan dutor chalishni zo'r ishtiyoq bilan o'rganyapman. O'zim pianino chalaman. Ammo dutor chalish kishiga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi, — deydi Zarifa ERGASHEVA.



quvonarlidir, — deydi musiqa va san'at maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Qahramon aka Jo'rayev. — Bu yerda san'atsevarlar, kela-

— Men bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari orasida bo'lib o'tgan «Akademik cholg'ular va estrada ijrochiligi» Respublika tanlovining «Estrada



xonandaligi» yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lib, III darajali Diplom bilan taqdirlandim, — deydi 13-Bolalar musiqa va san'at maktabining 3-sinf o'quvchisi Shohruh Ergashev.

— Yangi musiqa va san'at maktabida Nosirjon aka Mirzaboyev kabi ustozlarim ko'magida yanada ko'proq o'qib, o'rganib bundan-da yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqchiman.

Chindan ham, bugungi yosh avlodga har qancha havas qilsak arziydi. Ularning kelajakda ma'naviyatli, ma'rifatli, yurtga munosib vorislar bo'lishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Kelgusida yangi barpo etilgan mazkur musiqa maktabidan ham nufuzli xalqaro tanlovlarda o'z so'zini ayta oladigan yoshlar yetishib chiqishiga ishonamiz.

— Men shu maktabning tasviriy san'at sinfiga qatnab, mahoratimni oshiryapman, — deydi 40-maktabning 4-sinf o'quvchisi Obidjon ABDULLAYEV.



MUSTAQILLIK TENGDOSHI

Namangan shahridagi 58-Davlat ixtisoslashtirilgan maktabi 1991-yil foydalanishga topshirilgan. Hozirgi kunda maktabda 1540 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Ularga 87 nafar o'qituvchilar Davlat ta'lim standartlari talablari asosida, ilg'or pedagogik texnologiyaga tayangan holda ta'lim-tarbiya berishmoqda.

Ta'lim maskanidan ko'plab «Bilimlar bellashuvi», Respublika fan olimpiadasi g'oliblari, sport sohasidagi jahon va Osiyo chempionlari, sport ustalari, kurash, akrobatika, minifutbol, basketbol, kikkoksing bo'yicha O'zbekiston chempionlari yetishib chiqqan.

Maktabga kirib borar ekanmiz, ustozlari tomonidan oshiqayotgan bir bolakayga duch keldik.

— Oltin medal oldim, oya, (o'quvchilar utozlarini yaqin olib, «oya» deyishar ekan), — dedi u hayajonini yashirolmay.

Ustozi esa:

— Agar oltin bo'lmaganda sen bilan gaplashmasdim, — deya o'quvchisini erkalam qo'ydi.

Ularga xalaqit qilmaslik uchun sekingina maktab foyesidan o'tib borayotgan edik, ro'paramizdan to'rt nafar o'quvchi chiqdi. Ulardan birining ko'zlarini yig'idan qizarib ketgan edi.

— Iye, nega xafasiz? — so'radik bolalarni to'xtatib.

Yig'lagan bola 9-«V» sinf o'quvchisi Javohir Rahimov ekan. U milliy istiqlol g'oyasi fanidan «to'rt» baho olgani uchun xafa bo'libdi.

Ustoz Ra'noxon opa Abduqahhorova o'quvchisiga «to'rt» ham yaxshi baho ekanligini, keyingi darslarga puxta tayyorgarlik ko'rishi va albatta, referat



topshirishi lozimligini tushuntirdi. Javohir va uning do'stlari Abdurahmon Rahimov, Jonibek Jo'rayev, Omonulla Qo'ziyoyev ustozni tushunishdi, chog'i, qizargan ko'zlarida quvonch alomatlarini paydo bo'lib, ma'yus chehralarda tabassum zohir bo'ldi.

Biz ham fursatdan foydalanib, do'stlarning quvnoq kayfiyatini suratga muhrlashga ulgurdik.

Ixtisoslashgan maktab o'quvchisi deganda, ko'z oldingizga sarlavhada keltirilgan ta'rifimizga munosib o'quvchilar keladi-a?



A'LOCHI QIZ SHOHRUZA

58-Davlat ixtisoslashgan maktabiga tashrif buyurganimizda, ana shunday o'quvchilardan biri — 8-«B» sinfda tahsil olayotgan Shohruza Rahimova bilan tanishdik. Bu iqtidorli qiz 2012-yili bo'lib o'tgan «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida biologiya fanidan 2-o'rinni qo'lga kiritgan ekan. Yaqinda maktabda tashkillashtirilgan «Konstitutsiya — baxtimiz poydevori» shiori ostida o'tkazilgan insholar tanlovida ham faxrli o'rinni egallabdi. Bunday yutuqlarni qo'lga kiritishida ustozlari opa Xolibo'yeva, «Huquqiy bilimlar» klubi rahbari Sayyora opa Sotvoldiyevaning mehnatlari katta ekan.

Barcha fanlarga qiziqaman, sport bilan muntazam shug'ullanaman. 5-sinfda o'qiyotganimda «Umid nihollari» musobaqasida sportning shahka turi bo'yicha qatnashib, maktab va shahar bosqichlarida birinchi o'rinda sazonkor bo'lganman. Kelajakda o'z maqsadlarim sari intilib, yanada kattaroq yutuqlarga erishishga harakat qilaman, — deydi qahramonimiz ishonch bilan.

Biz esa bu maktabda Shohruza kabi intiluvchan, a'lochii, sportsevar o'quvchilar ko'pligidan quvondik.

KICHKINA DEMANG BIZNI...



To'raqo'rg'on tuman xalq ta'limi muassalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Abdujabbor Qahhorov «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini kuzatib borar ekanlar.



Ta'lim maskanidagi ibrat qilsa arzigulik bu ezgu ishlarning barchasiga maktab rahbari Xolmatjon Egamberdiyev bosh-qosh. Ularning tashabbusi bilan maktabda limon yetishtirish bo'yicha issiqxona tashkil etilgan.



Maktab kiraverishida «Bilimingizni sinab ko'ring» burchagi tashkil etilgan bo'lib, unda o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishadi.

To'raqo'rg'on tumanidagi 8-umumta'lim maktabi qo'shni maktablarga nisbatan kichikroq bo'lsa-da, ammo yutuqlari tahsinga loyiq ekan.

400 nafar o'quvchi o'qiydigan mazkur bilim maskanida 39 nafar o'qituvchi faoliyat yuritadi. 2012-yilda YUNISEF Xalqaro bolalar tashkilotining «Gigiyenada chempionlik tashabbusi» harakatida qatnashib, yetakchilik qilgani uchun YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan maxsus sertifikat hamda sport anjomlari bilan taqdirlangan. Maktabga BMT tomonidan quyosh nurlaridan quvvat oluvchi quyosh batareyasi o'rnatilgan.

Har yili ular maktablar o'rtasida o'tkaziladigan «Obod maktab» tanlovida faxrli o'rinni qo'ldan berishmaydi.

Maktabning informatika fani o'qituvchisi Qodirjon Dadaboyev «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» tanlovining tuman bosqichida 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan.

«Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 9-sinf o'quvchisi Saidmurod Sodirov, 7-sinf o'quvchisi Nazokat Mahammadjonova, 6-sinf o'quvchisi Usubjon Mahammadjonov matematika fanidan faxrli o'rinlarni egallashgan. «Obod yurt farzandlarimiz» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha Kumush Mamatkarimova 1-o'rinni olgan, viloyat bosqichida esa faxrli o'rin sohibasi bo'lgan.

— Kurash bo'yicha uch karra jahon chempioni Rustamjon Umarov maktabimizning sobiq o'quvchisi bo'ladi. Men ham sportga, futbolga qiziqaman. «Quvnoq startlar» televizion musobaqasida maktabimizning «Lochin» terma jamoasi viloyatda 2-o'rinni oldi, — deydi 7-«A» sinf o'quvchisi Avazbek Tohirov.



To'raqo'rg'on tumanidagi 13-umumta'lim maktabiga kirib borganimizda, o'quvchilar qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, bizni iliq qarshi olishdi. Bu yerdagi tartib-intizom, sarafjom-sarishlatlik bahri dilimizni ochib yubordi. Mazkur ta'lim maskanida o'qiyotgan 495 nafar o'quvchiga 42 nafar ta'limiy, fidoyi ustoz-murabbiylar ta'lim-tarbiya berib kelishyapti. Maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Saida opa Qahhorova hamrohligida maktabni aylandik.

FAYZLI MASKAN

bizga tennis o'ynashni sidqidildan o'rgatadilar. Bo'sh vaqtlarimda kitob, gazeta-jurnallar o'qishni yoqtiraman.

— Men esa Avazbek Abdurahmonovman. Shu maktabning 5-«A» sinfida o'qiyman. Sinf rahbarimiz Obidjon aka Nurmatov. Yoshligimdan boksga qiziqaman. Besh yildan buyon sport to'garagiga qatnayman. Viloyat va tuman miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda faxrli 1- va 2-o'rinlarni egallaganman.

Avazbekning do'sti o'zini Jamshidbek Ergashboyev, deb tanishtirdi. U ham sportning futbol turi bilan ikki yildan beri shug'ullanib kelayotgani haqida gapirdi.

— 2012-yilda jamoadoshlarimiz bilan Toshkentga borgandik, — deya hikoya qildi Jamshidbek. — U yerdagi zamon talablariga javob beradigan sport inshootlarini ko'rdik, lekin bizdagi shart-sharoitlar ham u yerdagidan qolishmaydi.

Bolalarning bo'y-bastlari-yu ko'zlaridagi shijoat, o'zlariga bo'lgan ishonchni ko'rib, bu dargohda ham sport bilan oshno tutingan, sog'lom avlod voyaga yetayotganidan mamnun bo'ldik.

Tanaffus paytida berilib suhbatlashayotgan bolalar diqqatimizni tortdi. Ular bilan tanishish ishtiyoqida suhbatga chorladik:

— Salom, bolalar, biz gazeta muxbirlarimiz, o'zingizni tanishtirsangiz.

— Men Muhiddin Vahobov, 6-«A» sinfida o'qiyman. Sinf rahbarimiz Qizlarxon opa Arslonova bo'ladi. A'lo baholarga o'qish bilan birga sportning tennis turi bilan ikki yildan beri shug'ullanib kelmoqdaman. Murabbiyim Shuhratjon aka



UYCHINING TARIXINI BILASIZMI?

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyotida chop etilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati» kitobida yozilishicha, chiy cho'l-adirlarda o'sadigan, baland, boshqoqli o'simlik ekan. Qamishdan yoki savag'ich poyasidan ip, sim bilan qatorlab bog'lab to'qilgan qurilish materiali. Qadimda chiy bilan tomorqalar o'ralgan, devor qilib to'silgan.

Biz bejizga izohli lug'atga murojaat qilmadik. Aytishlaricha, Namangan viloyati hududida namlik kuchli bo'lganligi uchun o'simliklar olamiga juda boy ekan. Bu yerlarga kelib joylashgan tub aholi yashash uchun o'zlariga boshpana qurish maqsadida chiy deb nomlangan o'simlik butasidan foydalanishgan ekan. Bu o'simlikdan qurilgan uylar uychi, deb atalgan, keyinchalik esa bu yerlarga Uychi tumani nomi berilgan ekan. Bu ma'lumotlarning qanchalik haqiqatga yaqinligi yoki rivoyat ekanligi bizga qorong'u. Biroq, tuman nomi bilan qiziqqanlar borki, chiy o'simligi haqida so'z yuritishadi.

Safarimizni Uychi tumani maktablari bo'ylab davom ettirdik.

KASBGA SADOQAT



—Farzandning qobiliyati, sog'lig'i shodlik keltirsa, mukammal kasbi, bilimi bebaho boylik keltiradi, — deydi Uychi tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Jamoliddin Mirzayev. — Bu hikmatga tumanimiz ta'lim muassasalari o'qituvchilari birdek amal qilishadi. O'qituvchilarimiz o'z kasbining fidoyilari, o'quvchilarimiz esa tirishqoq, izlanuvchanligi bilan barchaga ibrat bo'lishmoqda.

Tumanimizda 48 ta maktab bo'lib,

shundan 46 tasi umumiy o'rta va 1 ta boshlang'ich ta'lim, 1 ta maxsus maktab-internati mavjud. 42 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 3 ta sport maktabi, 1 ta musiqa maktabi, 1 ta «Barkamol avlod» bolalar markazi faoliyat yuritadi. 28740 nafar o'quvchilarga 2129 nafar o'qituvchilar ta'lim-tarbiya beradilar.

Mazkur o'quv yilida tumanimizdagi 11-, 17-umumta'lim maktablari qayta qurilgan bo'lsa, 13-Bolalar musiqa va san'at maktabi yangi qurildi. Bu ezgu amallarning barchasi farzandlarimiz kamolotiga qaratilgandir.

Hozirda o'quvchilar orasidagi ko'ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida tuman IIB, prokuraturasi, XTB hamkorligida davomat reydlari o'tkazilmoqda. Ayniqsa, kompyuterxonalar hamisha diqqat-e'tiborimizda. Bu sa'y-harakatlar

samarasi o'laroq, maktabdagi to'garaklarga qatnashayotgan o'quvchilar sonining ortganini kuzatish mumkin. Ustoz-murabbiylar darsdan so'ng ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalarini ko'plab tashkil etishmoqda. Bugungi kunda o'quvchilarimiz orasida fan olimpiadalari g'oliblari, tuman, viloyat, respublika va xalqaro sport musobaqalari g'oliblari borligi bizni behad quvontiradi.

Jonkuyar ustoz Jamoliddin akaning fikrlaridan shuni angladikki, har bir o'quvchi va o'qituvchining yutug'i ham, muammosi ham unikidek, go'yo. Aslida ham shunday bo'lishi kerak emasmi?!



MAKTAB SARDORI nimalarga e'tibor qaratishi lozim?



Bugun sardorlar yig'ilishi. Rejaga muvofiq, «Konstitutsiyamiz — baxtimiz poydevori» shiori ostida o'tgan tanlovning maktab, tuman bosqichida g'olib bo'lgan o'quvchilarni, sinf sardorlarini rag'batlantirish kerak.

Uychi tumanidagi 33-umumta'lim maktabi sardori, 8-«V» sinf o'quvchisi Dilnoza G'oziboyeva shular haqida o'ylar ekan, avvalo, ustoz — maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Fotima Mo'minovaning o'g'itlariga amal qilishni diliga tugib qo'ydi. Ustozning aytishicha, maktab sardori nihoyatda ziyrak,

maktabdoshlariga o'rnak bo'lishi lozim. Har bir o'quvchining yutug'ini munosib baholab, muammosini to'g'ri hal qilishi kerak. Shundaygina ko'zlangan maqsadiga erishadi. Bugungi yig'ilishda esa faqat yutuqlar haqida gapiriladi.

6-«A» sinf sardori Barno Mamatxonova o'qishda ham, jamoat ishlarida ham sinfdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda. Barno tumandagi «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshidagi «Yosh raqqosalar» to'garagi a'zosi. «Bilimlar bellashuvi»ning maktab, tuman, viloyat



«Eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi — 2012» respublika ko'rik-tanlovining II darajali diplom sohibasi — 33- maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Fotima Mo'minova haqida gap ketganda, eng avvalo, uning talabchanligi, bilimdonligi va albatta, mehribonligi tilga olinadi. Bunga biz ham opa bilan yaqindan tanishganimizda guvoh bo'ldik. Ustozning ish tajribasi tuman ta'lim muassasalarida ommalashtirilgan. Opaning tashabbusi bilan tumandagi umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlaridan iborat «Yosh direktor o'rinbosarlari maktabi» tashkil etilgan.

bosqichi g'olibi. Shuningdek, «Konstitutsiyamiz — baxtimiz poydevori» ko'rik-tanlovining tuman bosqichi g'olibi.


8-«V» sinf sardori Maqsudbek Umrzoqov Davlat huquq asoslari fanidan tumanda o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da faxrli o'rinni egalladi.

«Yosh kashfiyotchi» ko'rik-tanlovida esa ikkinchi o'rinni oldi...



Eh-he, o'quvchilar yutuqlarini birmabir sanayversak, vaqtimiz yetmaydi. G'oliblar, iqtidorlilar maktabimizda juda ko'p. Ular haqida keyingi sardorlar yig'ilishida to'xtalamiz. Hozircha esa, bir gapni takrorlagim kelyapti: maktab, sinf sardorlari — o'quvchilarning ishongan yetakchisi, shunday ekan, bu ishonchni oqlash muhim.

POPNING ASAL MEVALARI




Namangan viloyati, Pop tumanidagi 16-maktabning 4-«V» sinf o'quvchisi Ahrorjon Namozov chizgan rasmlardagi Popning anori-yu, noklarini tanidingizmi? Oltin kuzdan ilhomlanib, qishlog'ining bog'-u dalalaridagi manzarani aks ettirgan rasmi ham sizni befarq qoldirmagandir? Rasm darsiga juda qiziqadigan Ahrorjon bo'sh vaqtda rasm chizishni yaxshi ko'rar ekan. Uning mashqlariga baho bering-chi?



Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasi



MUSLIMA

33-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Muslima Adashboyeva tasviriy san'atga qiziqishi sabab, «Zulfiyaxonim izdoshlari» tanlovida o'zining chizgan rasmlari bilan qatnashib, tumanda 2-o'rinni qo'lga kiritdi. U «Konstitutsiyamiz – baxtimiz poydevori» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida ham faxrli o'ringa munosib ko'rildi.

H. HAMIDULLAYEV olgan surat

O'ZBEKISTONIM



Alp o'g'lonlar Vatan posboni,
Ajdodlarim yurtning dostoni.
Millatlarning eng gulistoni,
Sen o'zingsan, O'zbekistonim.

Har bolaning qalbida ilm,
O'chmaydigan aqldir bilim.
Omon bo'lsin, bu xalqim, elim,
Buyugimsan, O'zbekistonim.

Shodiya ABDUG'AFUROVA,
Chortoq tumanidagi
5-DIMI 7-sinf o'quvchisi

VATANIM

Vatan, deb shunchaki aytib bo'lmaydi,
Bu so'zda bir olam ma'no mujassam.
O'tmishin o'ylasam, titrar jon-tanim,
Bugunidan har qancha faxrlansam kam.

Vatanni aziz, deb bilganlar qancha,
Uning deya jon bergan bobolarim bor.
Yurtim ravnaqiga hissa qo'shsak gar,
Ajdodlarning ruhi bo'lar madadkor.

Mavsuna PO'LATJONOVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi
13-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi

QISHLOG'IM

Qishlog'im misli chaman,
Serhosildir bog'lari.
Adirlari maysazor,
Purviqordir tog'lari.

Suv bo'yida teraklar,
Tizilishib turadi.
Qo'y-qo'zilar yaylovda,
Yayrab o'tlab yuradi.

Shu go'zal qishlog'imni,
Siz ham bir ko'rib qo'ying.
Bog'ida bolga to'lgan,
Mevalariga to'ying.

Nozima YO'LDOSHALIYEVA



RAYHONGINAM

Hovlimizning ko'rkidirsan,
Xushro'ygina rayhonginam.
Erta bahor gulgun yashnab,
Qish kelganda hayronginam.

Xushbo'y atring taralmasa,
Ko'ngil xonam vayronginam.
Iforingning tengi yo'qdir
Dunyoda sen tanhoginam!

Xurshida TURSUNOVA,
Chortoq tumanidagi
5-DIMI 8-sinf o'quvchisi



YAXSHILIK RAMZI

Yurtim tuprog'ida cho'p ham ko'karar,
Tiniq osmonida charx urar qushlar.
Bu diyorda kimki sof niyat qilsa,
Ezgu orzulari beshak ushalar.
Binolari osmon qadar bo'y cho'zgan,
Bir tekis yo'llari yarqirab turar.
G'alla-yu paxtadan mo'l hosil olgan,
Bobodehqonlarin ko'ksi tog' yurar.
Yurtim ta'rifi topolmayman so'z,
Ayting, bunday diyor yana qayda bor?!
Uni onamdayin e'zozlayman men,
Uni jannat, deya qilgum iftixor.

Munavvar JAKBAROVA,
Uychi tumanidagi
11-maktabning 5-«V» sinf o'quvchisi

NAMANGANDIR BU

Ona shahrim, gullar vodiysi,
Misli sadaf, durlar vodiysi,
Qalbga ziyo, nurlar vodiysi,
Tanda jonim, Namangandir bu.

Sodda, saxiy, tanti xalqi bor,
Dehqoniga doim omad yor,
Men ham bo'lay unga madadkor,
Tanda jonim, Namangandir bu.

Atrofida purviqor tog'lar,
Jannat kabi yashnagan bog'lar,
Zavqli o'tar bolalik chog'lar,
Tanda jonim, Namangandir bu!

Dildora ASQARALIYEVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi 8-maktabning
7-«A» sinf o'quvchisi



Sport –

salomatlik garovi.
Buni teran anglagan
namanganlik o'g'il-
qizlar sportning biror
turi bilan muntazam
shug'ullanishga
intilishyapti.

QIZLAR POLSHADA BELLASHADILAR

Uychi tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi E'zoza Sotvoldiyeva, 9-«V» sinf o'quvchisi Maftuna To'xtamirzayeva ham ana shunday yosh, umidli sportchi qizlarimizdan. A'lo o'qishi, jamoat ishlaridagi faolligi, intiluvchanligi bilan barchaga ibrat bo'layotgan bu dugonalarning sportning voleybol turi bo'yicha qo'lga kiritayotgan yutuqlari ham salmoqli bo'lyapti. Sport ularning darsdan bo'sh vaqtlariga mazmun baxsh etibgina qolmay, salomatliklariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini qizlar alohida ta'kidlashdi.

– Men to'rt yildan buyon sportning voleybol turi bilan shug'ullanib kelaman, – deydi Maftuna faxr bilan. – Meni voleybolga qiziqirgan murabbiyim Muzaffar aka Hoshimovdan behad minnatdorman. Sport tufayli ustozlarim, tengdoshlarim orasida e'tibor qozondim. O'zingma bo'lgan ishonchim ortdi, irodam toblanyapti, salomatligim mustahkam-lanyapti. Ko'plab musobaqalarda qatnashib, tajriba ortirdim, do'stlarim safi kengaydi.

O'tgan yili jamoamiz bilan voleybol musobaqasi bo'yicha tuman birinchiligida qatnashib, faxrli 2-o'rinni egalladik. Viloyat miqyosidagi musobaqada esa 3-o'rinni band etdik. Jamoamizda sakkiz nafar qiz bor. Men jamoa sardoriman. O'tgan musobaqalardan orttirgan tajribamiz asosida mashg'ulotlarga kirishib ketdik, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarimiz ustida ishlab, mahoratimizni oshira bordik. Natija ko'ngildagidek bo'ldi. Chortoq tumanida bo'lib o'tgan voleybol musobaqasida 1-o'rinni egallab, maktabimiz sharafini munosib himoya qildik. Ayni kunlarda 2014-yili o'tkaziladigan «Barkamol avlod» sport musobaqasiga qizg'in hozirlik ko'ryapmiz.



– Men ham sportning shu turiga juda qiziqaman, – deya dugonasining fikrini davom ettirdi E'zozaxon. – Biz o'smir yoshidamiz. Ham jismonan, ham ma'nan barkamol bo'lib ulg'ayishimizda sportning o'rni beqiyos ekanligini otanalarimiz, ustozlarimiz bot-bot takrorlashadi. Shuning uchun ham sport bilan jiddiy shug'ullanyapmiz. Musobaqalarda qatnashib, yuqori natijalar qayd etishga intilyapmiz. Shu tariqa ustozlarimiz, xususan, jismoniy tarbiya fani o'qituvchimiz Muzaffar aka Hoshimovning ishonchini oqlashga harakat qilyapmiz. Kelajakda xalqaro tanlovlarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etish, yurtimiz sharafini munosib himoya qilish niyatidamiz. Hozirda, 2014-yil yanvar oyida Polshada o'smir qizlar o'rtasida bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ishtirok etish uchun puxta hozirlik ko'ryapmiz. Bizga omad tilang...

Biz nima ham derdik, bunday sog'lom fikrlovchi, umidli sportchi tengdoshlarimiz safi yanada kengayaversin, deymiz.

Namangan shahridagi 58-Davlat ixtisoslashtirilgan maktabi o'quvchilarining sport bo'yicha erishayotgan yutuqlari keyingi yillarda nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida ham e'tirof etilmoqda. Turli nufuzli musobaqalardagi yuqori natijalar mazkur dargohda yoshlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar samarasidir.



CHEMPIONLIK OSTONASIDA

Jumladan, maktabning 5-«A» sinfida tahsil olayotgan Ravshan Salmonov mana bir necha yildirki, karate sport turiga oshno tutingan. Garchi yosh bo'lsa-da, uning sportda erishgan muvaffaqiyatlariga tengdoshlari havas bilan qaraydi. Sportsevar bolakay bugunga qadar Namangan viloyat terma jamoasi tarkibida karate bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqalarida ishtirok etib, 1 ta kumush va 1 ta bronza medalni qo'lga kiritgan.

– Maktabimizda sport bilan muntazam shug'ullanib, turli yutuqlarni qo'lga kiritayotgan yoshlar talaygina. Ana shunday iqtidorli tengdoshlarim safida bo'lish menga kuch va g'ayrat bag'ishlaydi, zimmamga esa yanada kattaroq mas'uliyat yuklaydi, – deydi Ravshan Salmonov.

Ravshanning yutuqlari, u bilan bir sinfda tahsil olayotgan do'stlari qalbida ham sportga mehr uyg'otayotgani quvonarlidir. Hozirda bu sinf o'quvchilarining aksariyati sportning biror turi bilan shug'ullanishadi.

– Men do'stinga havas qilib karate sport turi bilan jiddiy shug'ullanmoqdaman. Bir necha bor respublika miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etib, 1 ta bronza medalni qo'lga kiritdim. Kelajakda Ravshan ikkimiz xalqaro musobaqalarda ham yurtimiz sharafini munosib himoya qilish niyatidamiz, – deydi Ahror Boltaboyev.

6^{ta} OLTIN MEDALLI -SINF O'QUVCHISI

58-Davlat ixtisoslashtirilgan maktabning 6-«V» sinfida tahsil olayotgan Behzod Ushurovning ham sportida qo'lga kiritayotgan yutuqlari tahsinga loyiq. Uning hozirga qadar karate bo'yicha respublika miqyosida o'tkazilgan turli musobaqalarda jami 19 ta (shulardan oltitasi oltin) medal egasiga aylangani, yaqinda Buxoroda o'tkazilgan yoshlar o'rtasidagi Respublika chempionatida ham shohsupaning yuqori pog'onasidan joy olgani so'zimiz tasdig'idir.



– Men shahrimiz markazida joylashgan «Pahlavon» sport majmuasi qoshidagi karate to'garigiga qatnayman. Ustozim Murod Abdullayev sa'y-harakatlari bilan bugunga qadar turli musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqdaman. Kelajakda xuddi ustozim kabi mohir murabbiy bo'lib, yoshlarga karate sir-asrorlarini o'rgatmoqchiman, – deydi Behzod.

Qahramonimiz nafaqat sportda, balki fanlarni o'zlashtirishda ham tengdoshlariga o'rnak bo'lmoqda. Ayniqsa, matematika, ingliz tili va tarix fanlari uning jon-u dili. Yaqinda Behzod sinfdosh do'stlari Ayubxon Usmonov, Mansurbek Hamidov, Alisher Xolmirzayev, Shavkat Odilovlar bilan birga «Zakovat» guruhini tashkil qilib, maktabda o'tkazilgan «Bilimlar mushoirasi»da g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Biz bu maktab o'quvchilari orasidan kelgusida xalqaro musobaqalar g'oliblari ham yetishib chiqishiga tilakdoshmiz.

«Maktabimiz yap-yangi!»
O'quvchilarning faxrila e'tirof
etishlari qalbimizni to'liqlan-
lantirib yubordi. Chindan ham
mazkur maktab ozodaligi,
ko'rkamligi, fayzligi bilan
ajralib turadi.

Ha-ya, aytgandek, Uychi tumanidagi 11-umumta'lim maktabi 2013-yilda mukammal qayta qurilgan. Maktabda 57 nafar tajribali o'qituvchilar 746 nafar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishadi. Ta'lim maskanida 20 dan ortiq to'garaklar bo'lib, shundan 4 tasi sport yo'nalishida, 2 tasi kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyat yuritadi.

Mazkur bilim dargohiga maktabning sobiq o'quvchisi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi Jahongir Asqarov rahbarlik qiladi. Darvoqe, ularning ota-onalari ham shu maskanda mehnat qilishgan. Otalari G'afurjon Asqarov ona tili va adabiyot fanidan, onalari Ulug'xon Ergasheva esa kimyo va biologiya fanidan dars berganlar. Bugun ularning ruhlari shod. Boisi,



farzandlari Jahongir aka ota-ona kasbini faxr bilan davom ettirmoqdalar.

– Mazkur o'quv yilini yangi binoda boshladik. Bu g'ayratimizga g'ayrat qo'shdi. Bizga yaratilgan shart-sharoitlarga munosib javob berish uchun yanada yaxshiroq o'qishga, odobli o'quvchi bo'lishga harakat qilamiz, – deydi 5-«V» sinf o'quvchisi Muattar Tohirjonova. – Men matematika, fizika fanlariga qiziqaman, shaxmat o'ynashni juda-juda yoqtiraman. Mana hozir ham sinfdoshim Munavvar bilan shaxmat o'ynab o'tiribmiz. Buning uchun ustozlarim – Abdurabbor Rahmonov, Adhamjon Egamov, Hakimjon Yunusov, Mavjuda Asqarovadan minnatdorman.

Bizning puxta bilim olishimiz, sport bilan muntazam shug'ullanishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan Yurtboshimizga, ustozlarimizga rahmat degim keladi. Kelgusida, albatta, ularning ishonchini oqlaymiz.

Ushbu bilim maskanidan mamnun bo'lib qaytar ekanmiz, Muattarga va barcha namanganlik o'quvchi-yu o'qituvchilarga omad tiladik.

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«CHAMANZOR DIYOR»

AYLANMA KROSSVORDI


Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'natishida:

1. Daryoga nomdosh tuman.
2. Oliy liga futbol jamoasi.
3. Sahna san'ati.
4. Kasb-hunar bilimgo'hi.
5. Viloyatda rivojlangan sanoat tarmog'i.
6. Taniqli futbolchi, O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi.
7. O'zbek mumtoz g'azalnavis shoiri.
8. Viloyat hududi joylashgan vodi.
9. Ma'rifatparvar ijodkor, «Olti tillik» lug'at muallifi.
10. Shifobaxsh ma'dan suvli oromgoh.
11. O'zbek xalq raqs kuyi.
12. Dam olish zonasi.
13. Aholining asosini tashkil etuvchi millat.
14. Pop tumani markazi.
15. Hunarmandchilik azaldan rivojlangan tuman.
16. Chustlik o'zbek shoiri, tarjimon.
17. Madaniy maskanlardan biri.
18. Adirlarda yashovchi yirik kaltakesak turi.
19. Sport majmuasi.
20. Chegaradosh viloyat.
21. Suv havzalaridagi baliq turi.
22. Zamonaviy suv sporti havzasi.
23. «Ayyor» yirtqich.
24. Viloyatdagi ayollar futbol jamoasi.

TOPSHIRIQ:

Aylanma krossvordni hal etgach, javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar asosida shaklning o'rta qismidagi raqamlarda yashiringan topshiriqni hal eting. Bunda ulardan o'zbek bolalar adabiyotida doston janri boshlab bergan namanganlik bolalar shoiri va uning sahna asarlaridan birini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV



Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i S.Turg'unovga, viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'limi bosh mu'taxassisi X.Abdurahmonovga va barcha mutasaddilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Maxsus sonni tayyorlaganlar:
F. JALILOVA, S. TURSINOV,
F. ADILOVA, S. QODIROVA,
D. HOTAMOVA,
O. TURSUNBOYEVA,
Z. MAMATQULOVA, O. ORIPOV

Gazetaning 46-sonida berilgan «XALQIMIZ FAXRI» muammonasining javoblari:

Kalit so'zlar: 1. Gerb. 2. Qo'y. 3. Yulduz. 4. Nukus. 5. «Kamalak». 6. Paxta. 7. Viloyat. 8. Farg'ona.

Ta'rif: O'zbekiston – suveren demokratik Respublikasining bayrog'i ona xalqimizning g'ururi va faxridir.

8

25-noyabr 2013

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Sobitxon TURGUNOV,
Zikrilla TESHABOYEV.

Navbatchi
muharrir
Sayyora
QODIROVA
Rassom
Feruza
MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin
ORIPOV
Musahhih
Dilorom
MUHAMMADJON qizi

Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 46870
Buyurtma N: 8585